



**IQTIDORLI TALABALAR,  
MAGISTRANTLAR, TAYANCH  
DOKTORANT VA DOKTORANTLARNING  
“TAFAKKUR VA TALQIN”**

**MAVZUSIDAGI  
RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI  
ILMIY-AMALIY ANJUMAN**

**TO‘PLAMI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**Buxoro-2025**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**MAGISTRATURA BO'LIMI**

**IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR,  
TAYANCH DOKTORANTLAR VA  
DOKTORANTLARNING**

**TAFAKKUR VA TALQIN**  
**mavzusida**

*respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy  
anjuman to'plami*

**Buxoro 2025-yil, 15-may**

### Tahrir hay'ati

<b>O.X.Xamidov</b>	- Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor;
<b>R.G'.Jumayev</b>	- Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, (PhD), professor;
<b>K.A. Samiyev</b>	- Texnika fanlari doktori (DSc), dotsent;
<b>D.R. Djurayev</b>	- Fizika-matematika fanlari doktori, professor;
<b>S.Q. Qahhorov</b>	- Pedagogika fanlari doktori, professor;
<b>A.A. Turayev</b>	- Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor;
<b>S.B.Bo'riyev</b>	- Biologiya fanlari doktori, professor;
<b>B.N.Navro'z-zoda</b>	- Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
<b>O.S.Qahhorov</b>	- Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor;
<b>Sh.Sh.Olimov</b>	- Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor;
<b>B.E.Qilichov</b>	- Filologiya fanlari doktori (DSc), professor;
<b>M.B.Ahmedova</b>	- Filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent;
<b>B.B.Namozov</b>	- Tarix fanlari doktori (DSc), professor;
<b>M.A.Tursunov</b>	- Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor;

*Mas'ul muharrir:*

**A.A. Turayev** – magistratura bo'limi boshlig'i *f.-m.f.f.d., (PhD) professor.*

*Muharrirlar:*

**M.B.Qayimova** – BuxDU 1-bosqich magistranti.

**T.Sh.Ergashev** – Magistratura bo'limi bosh mutaxassisi.

**D.R.Rahmatova** – Magistratura bo'limi mutaxassisi.

*To'plamda iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning ilmiy izlanishlari, tajriba almashish, sohalarda amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish va bu boradagi takliflarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-amaliy va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

*Mazkur to'plamga kiritilgan tezislarning mazmuni, statistik ma'lumotlar hamda bildirilgan fikr va mulohazalarga shaxsan mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.*

**“YASHIL MAKON” – SOG’LOM HAYOT MANBAL.**

*Komilova Maftuna Anvarovna*

*BuxDU magistranti*

*[m.a.komilova@buxdu.uz](mailto:m.a.komilova@buxdu.uz)*

**Annotatsiya-** Maqolada yoshlar orasida yashil makon tushunchasini ilgari surish hamda yashil makon orqali sog’lom va barqaror hayot qurish haqida so’z boradi.

**Kalit so’zlar:** inson, o’simlik, ko’chatlar, atrof-muhit, texnologiya, yashil joylar, yosh avlod.

**Аннотация.** В статье обсуждается популяризация концепции зеленых насаждений среди молодежи и построение здоровой и устойчивой жизни посредством зеленых насаждений.

**Ключевые слова:** человек, растение, саженцы, окружающая среда, технологи, зеленые насаждения, молодое поколение.

**Abstract-** The article discusses the promotion of the concept of green space among young people and the creation of a healthy and sustainable life through green space.

**Keywords:** people, plants, seedlings, environment, technology, green spaces, young generation.

**Kirish**

Atrof-muhitni asrab avaylash, inson hayotini va sog’ligini saqlash, o’simliklarni lumoya qilish, yashil iqtisodiyotni o’sishini ta’minlash, ekologik holatni yaxshilash, mevali daraxtlarni ko’paytirish, yashil makonni ko’paytirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Bugungi kunda dunyo aholisining aksariyat qismi shaharlarda yashaydi va bu tendentsiya kundankunga o’sishda davom etmoqda. Shaharlar iqtisodiy o’sish, innovatsiya va madaniy faollik markazlari bo’lishi bilan birga, atrof-muhitga salbiy ta’sir ko’rsatadi va aholining sog’ligi uchun xavf tug’diradi. Shuning uchun ham, shaharsozlikda yashil makonlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shu sababli ham yurtimizda yashil makon doirasida ko’plab samarali ishlar olib borilmoqda. Xususan, Xalqimizda “Ko’chat ek, bog’ yarat” degan naql bor. Chunki ekilgan ko’chatlar unib-o’sib chiroyli manzara hosil qilsa ham kishining dilini yayratib, ko’zlarni quvontiradi, ham havoning sofligini ta’minlaydi, shu bilan bir qatorda inson salomatligi uchun bir qancha foydali xususiyatlarga ega bo’ladi. Hozirgi kunda barcha ta’lim muassasari hududining yashil makonga aylanishi, albatta, yosh ijodkorlarning ona-tabiatga mehr qo’yishlarida, ajdodlarimiz singari ulkan bog’-rog’lar barpo etishida, yashillikdan bahra olib, inhomlanib yangi ijod namunalari yaratishlarida muhim ahamiyatga ega.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Yashil makon” umummilliy loyihasi mamlakatimizda ekologik vaziyatni yanada yaxshilash hamda iqlim o’zgarishlariga milliy yechim sifatidagi noyob loyiha bo’ldi, desak yanqlishmagan bo’lamiz. Zero, ushbu loyiha zaminida avtomobil va turli rusumdagi mashinalar, logistika va texnika vositalari qurshovida qolgan makonga asl tabiatni tuhfa etish, ko’chat ekish va bog’ yaratish yotadi.

Daraxt va butalarning inson hayotidagi ahamiyati qanchalik muhimligi harchamizga yaxshi ayon. Ko’kka bo’y cho’zib turgan salobatli dov-daraxtlar, ko’kalamzor joylar ko’zni yashnatishi bilan birga, havo musaffoligini ham ta’minlaydi. Yashayotgan makonni yashillikka burkash, bog’u bo’shtonlar barpo qilish inson hayotini boqiylikka daxldor qiladi. Albatta yashil makon orqali atrof-muhit ekologik holatining yaxshilanishi inson salomatligiga o’zining ijobiy ta’sirini ko’rsatadi. So’nggi yillarda aholi punktlarini ko’kalamzorlashtirish, yashil maydonlarni kengaytirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilayotgani sababi ham shunda. Yashil maskanlar, istirohat bog’lari qancha ko’p bo’lsa, aholi ularda shuncha maroqli hordiq chiqaradi. So’nggi besh yilda esa Orol dengizining qurigan tubida qariyb 2 million gektardan ortiq maydonda qurg’oqchilikka va sho’rga

chidamli o'simlik ko'chatlari ekildi yoki urug'lari sepildi. Ushbu ishlarning barchasi yashil makonni kengaytirish, shu bilan bir qatorda kelajak va yosh avlod o'rtasida yashil makon tushunchasini ommalashtirishdan iboratdir.

### ASOSIY QISM

Bugungi kunda butun yer yuzasida aholi sonining yuqori darajada o'sib borishi, iqlim o'zgarishi, ekologik vaziyatlarning yomonlashishi kundan-kunga dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Bu muammolarni bartaraf qilish insoniyat oldida turgan muhim vazifalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida 2025 yilni "Atrof muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilishi ushbu yo'nalishda keng ko'lamlı harakatlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu yilning e'lon qilinishi Yangi O'zbekistonda ona tabiatni asrab-avaylab, ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilayotgan yuksak etiborning amaldagi yana bir ifodasi bo'ldi. Bu tashabbus orqali biz bir qancha yashil makonlarni yaratishimiz, atrof-muhitni asrash va ekologik vaziyatlarni yaxshilash orqali inson salomatligini asrashimiz mumkin. Bunga qo'shimcha tarzda ushbu tashabbus O'zbekistonning xalqaro miqyosda yanada rivojlanishi uchun muhim turtkdir. Yurimizda olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlarning eng muhim vazifalaridan biri inson hayot sifati va farovonligini oshirishdan iboratdir. Aholi hayot sifati – umumlashtiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo'lib, nafaqat moddiy ne'matlar va xizmatlarni iste'mol qilish darajasini, balki ma'naviy ehtiyojlarni qondirish, salomatlik, umr ko'rish davomiyligi, atrof-muhit ekologik sharoitlarni, axloqiy-psixologik iqlim, ma'naviyatni o'z ichiga oladi. O'zbekistonda aholi hayoti sifati oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar jumlasida mamlakatimizda ekologik vaziyatni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni ta'kidlab o'tish kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktyabrdagi "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi", 2021-yil 30-dekabrda "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari" to'g'risidagi farmonida tatbiq etilishi belgilangan "Yashil makon" umummilliy loyihasi dasturlarida atrof muhit ob'ektlarini xususan havo, suv, yer, tuproq, yer qa'ri, bioxilma-xillik, qo'riqlanadigan tabiiy hududlar inson ta'siri hamda boshqa salbiy ta'sir qiluvchi omillardan saqlash va sifati ta'minlash hamda sanoat ishlab chiqarishi, urbanizatsiya ko'lami keskin kengayishi va aholi punktlariga tushayotgan ekologik yukni kamaytirish mexanizmlarini takomillashtirish rejaları ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda ekotizimlarni himoya qilish va tiklash, ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish va yashil maydonlarni kengaytirish borasida "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirilishi muhim qadam bo'ldi. Ushbu loyiha doirasida yiliga 200 million tup daraxt va buta ko'chatlarini ekish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni amaldagi 8 foizdan 30 foizga oshirish reja qilingan. "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida yiliga 200 million tup daraxt va buta ko'chatlarini ekish, shu orqali shaharlardagi yashil maydonlarni hozirgi 8 foizdan 30 foizga oshirish rejalashtirilgan.

Yashil makon - sog'lom havo, musaffo obi hayot va ko'rkam manzara uyg'unligidir. Yashil makonni qurish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Xususan daraxtlar sof havo, inson salomatligi uchun kerak bo'ladigan kislorod manbaidir. U nafaqat tabiiy tushun ko'rk, atrof-muhit musaffoligi uchun chang yutuvchi manba, kislorod ta'minot zanjirining ajralmas qismidir. Bundan tashqari yashil makonni qurishning bir qancha afzalliklari va foydali tomonlari bor. Misol qilib aytadigan bo'lsak ekologik jihatdan havo sifati yaxshilash, kislorod ishlab chiqarish, eng asosiysi yashil maydonlar turli xil o'simlik va hayvon turklarining yashash joyi bo'lib, biologic xilma-xillikni saqlashga yordam beradi. Shu bilan bir qatorda yashil makonlar insonlar salomatligi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda zavod va fabrikalarning ko'payishi natijasida ulardan chiqadigan zaharli moddalar havo tarkibini buzmoqda va albatta ushbu havo inson salomatligiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham hozirgi kunda nafaqat yoshlar balki katta yoshdagi odamlar orasida ham bir qancha allergik kasalliklar

ko'paymoqda. Ushbu muammolarning oldini olish maqsadida biz yosh va kelajak avlod ongida yashil makon tushunchasini singdirishimiz lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, 2025-yilni "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilinishi nafaqat iqtisodiyot sohasida balki insonlarning ekologik toza jamiyatda yashashini taminlashda ham yangi imkoniyatlarni ochib berdi. "Yashil makon" umummilliy loyihasi bir yoki ikki yillik loyiha deb emas, balki 1000 yillik loyihadir, deb e'tirof etildi. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, Daraxt havas bilan ekilishi, xalqimiz, mahallalarimizning madaniyatiga aylanishi lozim. "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirishda atrof muhitni asrash, hayvonot va o'simlik dunyosini muhofaza qilish, suv va yer resurslaridan oqilona foydalanishdan iborat. Kishilar o'simliklar dunyosi tabiatning va insoniyat hayotining birlamchi resursi ekanligini, har bir o'simlik turi biosferada o'zining ekologik ahamiyatiga ega ekanligini tushunib yetishlari lozim. O'simliklarni ko'p bo'lishi havoda kislorodni ko'p bo'lishiga, kishi ruhiyatiga va hatto ko'rishni mustahkamlanishiga sababchi bo'ladi. Shuningdek, tuproq namligini, unumdorligini saqlaydi, uning sho'rlanishi va eroziyani oldini oladi. O'simliklar dunyosi bo'lmasa yerda hayotning muvozanati, mutanosibliyi yo'qoladi. Shu bois, mamlakatimizda ekologik vaziyatni yaxshilash, tabiat muvozanatini saqlash hamda atrof-muhit muhofazasida muhim o'rin tutadigan omillardan biri – daraxt ekish va uni parvarishlash hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlamoqchimizki, har bir yosh avlod o'z mamlakatining tozaligi va rivojlanishi uchun o'z hissasini qo'shishi kerak. Shu kunda qadar, Buxoro viloyatida ham minglab tup manzarali daraxtlar va mevali daraxtlar, hamda buta ko'chatlari ekildi. Bu'ning barchasi mamlakatimizda yashil makonlarni kengaytirish va insonlar salomatligi uchun ekologik toza havo sifatini oshirishdan iborat. Shunday ekan har birimiz o'z tabiatimizga mehr-muhabbat va mas'uliyat bilan yondashib, daraxt ekish, ekologik toza texnologiyalarni hayotga tatbiq etish, yashil hududlarni kengaytirish orqali barchaga o'rnak bo'lishimiz hamda kelajak avlodlar uchun ham ekologik toza muhit yaratishimiz zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Mirziyoev Sh. M. "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish kensepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. PF-5863-son, 2019 yil 30 oktyabr.
2. Mirziyoev Sh.M. "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. PQ-4477-son, 2019 yil 4 oktyabr.
3. Mirziyoev Sh.M. "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. PF-45-son, 2021 yil 30 dekabr.
4. Mirziyoev Sh.M. "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar
5. Buxoro viloyat Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi 2021-2021 ma'lumotlari.
6. E.Berdiyev, SH.Gulamxodjayeva Manzarali daraxtlarni ko'paytirish o'quv qo'llanma Tosh-2020.

Internet ma'lumotlari.

1. <http://ekolog.uz/>
2. <https://xabar.uz/post>
3. <https://t.me/ecologuz>